



AMIR TEMURNING VATANIMIZ TARIXIDAGI O'RNI

Raya Nurqulova.

*A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika universiteti,
tarix fakulteti, o'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi.*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada XIV asrning o'rtalarida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi va uning markazlashgan davlat barpo qilish yo'lidagi kurashlari yoritib berilgan. Sohibqiron markazlashgan davlat va ulkan saltanatga asos solish, uning davlat boshqaruvi, uning milliy davlatchilik asoslarini rivojlantirish bilan birga mazmunan boyitishga qo'shgan hissi ko'rsatilgan. Sohibqironning jahon va Vatanimiz tarixidagi o'rni hamda mustaqillik va Amir Temurga ehtirom ilmiy maqolada ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: Sho'rolar davri, Amir Temur, Amir Husayn, Movaraunnahr, Markazlashgan davlat, Temur tuzuklari, kuch adolatda!, davlat boshqaruvi, Sh.A.Yazdiy, ibn Arabshoh, Buyuk saltanat, To'xtamishxon, Turk sultoni

AMIR TEMUR'S PLACE IN THE HISTORY OF OUR MOTHERLAND

Annotation. This scientific article covers the socio-political and economic situation in the country in the middle of the 14th century, Amir Temur's rise to power and his struggle to establish a centralized state. Sahibkiran's contribution to the foundation of a centralized state and a vast empire, his state administration, and the development of the foundations of national statehood, as well as its enrichment in content, is shown. Sahibkiran's place in the history of the world and our Motherland, as well as independence and respect for Amir Temur, is shown in the scientific article.

Keywords: The era of the Soviets, Amir Temur, Amir Husayn, Transoxiana, Centralized state, Temur's regulations, power is in justice!, state administration, Sh.A. Yazdi, ibn Arabshah, Great Sultanate, Tokhtamysh Khan, Turkish sultan

МЕСТО АМИРА ТЕМУРА В ИСТОРИИ НАШЕЙ ОТЕЧЕСТВА

Абстракт. В научной статье рассматривается социально-политическая и экономическая ситуация в стране в середине XIV века, приход к власти Амира Темура и его борьба за создание централизованного государства. Показано возникновение централизованного государства и огромной империи, его вклад в государственное

управление, развитие основ национальной государственности, обогащение его содержания. В научной статье рассматривается место Сахибкирана в истории мира и нашей Родины, а также независимость и уважение к Амиру Темуру.

Ключевые слова: Советская эпоха, Амир Темура, Амир Хусейн, Мавераннахр, Централизованное государство, Устав Темура, сила в справедливости!, государственное управление, Ш.А. Язди, ибн Арабшах, Великий Султанат, Тохтамыш-хан, турецкий султан

Kirish. Vatan va xalq tarixida shunday buyuk siymolar bo‘ladiki, ular o‘zining daho qobiliyati, elu yurtiga bo‘lgan buyuk muhabbati, shijoati va sadoqati bilan yangi davrning yaratuvchisi, asoschisi sifatida maydonga chiqadi. Amir Temur Vatanimiz tarixida ana shunday buyuk siymo hisoblanadi.

Sohibqiron markazlashgan davlat va buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirib, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga yo‘l ochdi.

Aytishimiz joizki, sho‘rolar zamonida o‘zbek halqining ko‘plab rahbar kadrlari, ziyolilari qatog‘onlik qurboni bo‘ldilar hamda tahqirlashu-ta’qiblarga duchor bo‘ldilar. Shu jumladan bobokalonimiz Amir Temurning nomi ham tahqirlashlarga uchradi. Bunday bo‘lishi Sho‘rolar tuzumiga xos, tabiiy holat edi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev yozganlaridek, “Agar har bir xalq, har bir davlat mustaqil bo‘lmasa, boshqalar uning nafaqat dehqonini, nafaqat ishchisini, hattoki shoiru olimini ham, davlat arbobini ham istagancha tahqirlashi mumkin ekan.”[1]

Mustaqillik tufayli Amir Temur siymosi Vatan va millat timsoliga aylandi. Bugungi kunda Amir Temur siymosi yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida, mard, dovyurak, jasur, zamon talablariga javob beraoladigan va shijoatli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

XIV-asrning 60-yillarida mug‘ullarning Chig‘atoy ulusida bir yarim asrlik hukmronligi davom etayotgan edi. Yurtda parokandalik bo‘lib, kichik hokimliklarga bo‘linib ketgan, boshboshdoqlik jarayoni kuchaygan edi. Kichik hokimliklar o‘rtasida o‘zaro nizo va urushlar avj olgan edi. Mamlakatdagi bunday vaziyat xalq ommasining ahvolini yanada og‘irlashtirgan edi. Xalq va mamlakat bunday ahvoldan qutqaradigan xaloskor va yetakchiga mushtok edi.

Ana shunday vaziyatda yosh Temurbek Movarounnahrning siyosiy kurash maydoniga kirib keldi va o‘z oldiga “Millatning dardlariga darmon bo‘lish” maqsadini qo‘ydi.

Amir Temur o‘zining butun kuchini, avvalo, yurtni mo‘g‘ullar asoratidan ozod qilish, feodal tarqoqlik, o‘zaro nizo va urushlarga barham berib, Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo qilishga qaratdi. Amir Temurning asosiy raqibi Balx amiri xasadguy Husayn bo‘lib, u doimo Temurga g‘arazguylik qilib, pand berishdan qaytmaydi. Shu bois, Temurbek 1370 yilning bahorida Balxga yurish qilib, amir Husaynni tor-mor keltirdi. Amir Temurga xos bo‘lgan yuksak insoniy fazilatlaridan biri, uning kechirimlilik edi. Amir Temur davri tarixchisi Sh.A.Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida shunday yozadi: Sohobqiron amirlariga qarab: “Men

uning qonidan kechganman va undan intiqom olish tarixiga chiziq tortganman”-deb javob beradi[6].

Hazrat Sohibqiron esa Kayxusravga taskin berib, “Sen bu da’vodan voz kechgil, sening birodaringning qoni shundoq ham uni tinch qo‘ymaydi”-dedi[1].

Shunga qaramay, shariat hukmi bo‘yicha akasining xunini amir Husayndan olib, uni o‘ldiradi. Shu tariqa, Amir Temur o‘zining asosiy raqibidan qutildi.

Balx shahrida Amir Temur amirlar va qo‘shin qo‘mondonlari tomonidan Movarounnahrning ulug‘ amiri deb e‘lon qilindi.

Amir Temur “Zafarnoma” asarida aytilganidek, “Dashtining fozilligidan, bog‘larining tarovati, imoratlarining yaxshiligi, suvlarining rovonligi shuhratidan, boshqa diyorlardan xijil qiladigan va turli shahar va o‘lkalarning rashkini keltiradigan ul muborak shaharni davlat bayrog‘ining markaziga aylantirib, poytaxt qildi. U shahar qo‘rg‘onining qal’asini qurishga, oliy imoratlar va tillakori qasrlar barpo etishga farmon berdi.”[6]

Amir Temur davrida “Samarqandning shuhrati Misrni ortda qoldirdi”

Amir Temur davri tarixchisi Ibn Arabshoh ham o‘zining “Amir Temur tarixi” asarida Sohibqironning o‘z poytaxtiga hamda uning atroflariga alohida e‘tibor berganini ta’kidlab, “Temur Samarqandning atroflari va etaklarida bir necha qasabalar bunyod qilib, ularni shaharlar kelinchaklari bo‘lgan Misr (Kohira), Damashq, Bag‘dod, Sultoniya, Sheroz kabi azim va markaziy shaharlar nomi bilan atadi.”[4]

Sohibqironning Samarqand atrofidagi qishloqlarga mashhur shaharlar nomini berishida katta ma’no va mazmun bor edi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aytganlaridek, “Amir Temur Samarqandni o‘zining buyuk saltanatiga poytaxt qilib, uni jahondagi eng qudratli va obod shaharlardan biriga aylantirdi”[1]

Amir Temur Ulug‘ amirlik maqomiga erishgach, o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadini kuchli markazlashgan davlat barpo qilish niyatini amalga oshira boshladi.

Sohibqiron o‘zining bir necha yillar olib borgan harbiy yurishlari, diplomatik mahorati, ustalik bilan qo‘llagan tadbirlari tufayli, mamlakat hududlarini mug‘ullar nazoratidan ozod etib, siyosiy tarqoqlik, parokandalik, o‘zaro nizolarga barham berib, yagona markazlashgan davlatga asos soldi va bu davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora qila boshladi. Uning “Davlat ishlarinining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim” degan so‘zlari buning yaqqol dalilidir. Umrining mazmunini Vatan va millatning dardlariga darmon bo‘lishga bag‘ishladi[7].

Shuning bilan birga Sohibqiron XIV asrning 80-yillaridan boshlab ko‘plab harbiy yurishlar olib bordi. Amir Temur ulkan saltanatga asos soldi.

U o‘zining jahongirlik yurishlari natijasida ishg‘ol qilgan, qo‘lga kiritgan yurtlarni, ayrim-ayrim hududlarni o‘z farzandlari va nabiralariga suyurg‘on mulk qilib berdi, biroq o‘z saltanatining yuragi, ona-yurti Movarounnahrni hech kimga mulk qilib bermadi. Shundan ham ko‘rinadiki, Sohibqiron Vatanning muqaddasligi, yagonaligi, butunligini har narsadan ustun

qo‘ydi. U Movarounnahrning yaxlitligi va butunligini ko‘z qorachig‘idek asradi. Bu uning ona yurtga sadoqatidan va haqiqiy vatanparvarligidan dalolat edi.

Shu o‘rinda ta’kidlashimiz joizki, birorta Yevropa davlatlari o‘z Konstitutsiyalariga ega bo‘lmagan davrda, bizning buyuk ajdodimiz Sohibqiron esa o‘z davlatini “Tuzuklar”i asosida boshqargan.

Bu haqda Amir Temur “Tuzuklar”da: “odam Atodan Xotam ul anbiyogacha, ulardan hozirgi damgacha o‘tgan sultonlarning qonunlarini va turish-turmushlarini donolardan so‘rab surishtirdim. Har qaysilarining yo‘l-yo‘riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi ahloqlari, ma‘qul sifatlaridan namuna olib, unga amal qildim”- deb yozadi[7].

Demakki, Sohibqiron davlatchiligimiz tarixini, o‘zigacha bo‘lgan davlatlar hukmdorlarining davlat boshqaruvini puxta o‘rgangan holda, o‘zining o‘ziga xos uslublari, yo‘l-yo‘riqlari, qonun-qoidalarini yaratdi.

Amir Temurning milliy davlatchiligimiz tarixidagi buyuk xizmati shundaki, u o‘zigacha shakllangan o‘zbek davlatchiligining 8 ta asoslariga izchil amal qilish bilan birga, ularni mazmunan boyitishga hissa qo‘shdi. Amir dunyo tarixida birinchi bo‘lib, jamiyat ijtimoiy tarkibini 12 tabaqaga ajratib, ularning har birining alohida mavqei, manfaatlarini, shunga muvofiq keladigan davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini ham belgilab berdi.

Sohibqiron o‘zining davlat boshqaruvida vazirlar tanlashga katta e‘tibor beradi. Bu haqda: “Amr qildimki, deb yozadi Sohibqiron “Tuzuklarda”, vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega bo‘lgan kishilardan bo‘lishlari lozim, birinchisi-asillik, toza nasllik, ikkinchisi - aql farosatlilik, uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lishlik, to‘rtinchisi-sabr chidamlilik va tinchliksevarlik.”[7]

Ko‘rinadiki, bu fazilatlar insonparvarlik, odamiylik bilan naqadar bog‘liq. Bu fazilatlarni birma-bir ko‘rib chiqar ekanmiz, buyuk hukmdorning kadrlar masalasiga nihoyatda e‘tibor berganini ko‘ramiz.

Amir Temur davltida maxsus arzbegi lavozimining ta‘sis etilishi, Sohibqironning o‘zining ulkan saltanatida oddiy xalqning arzdodi va shikoyatlariga jiddiy e‘tibor qaratganligidan dalolat beradi.

Sohibqiron “Tuzuklar”ida bu haqda: “Hukm qildimki, bir kishini arzbegi qilib tayinlasinlar. U sichoq, raiyat va arzdor qilib huzurimga keluvchilarning ahvolini, mamlakatning obod-xarobaligini, muhim ishlardan qay biri bitgan bitmaganligini mening arzimga yetkazib tursin”-deb yozadi[7].

Amir Temur davlatining yana bir ibratli tomonlaridan biri, o‘z davrida biror mamlakatda bo‘lmagan, tarixda kamdan-kam uchraydigan lavozim “Adolat amiri” lavozimining ta‘sis etilishidir. Adolat amiri har el, har shaharda sichoq bilan raiyat o‘rtasidagi kelib chiqadigan nizoli masalalarni tinch yo‘l bilan hal qilish choralari ko‘rgan.

Shuningdek, Amir Temur o‘z davrining boshqa hukmdorlaridan farq qilib, o‘zini nazorat qilish uchun ikki kishini shaxsiy nazoratchi qilib tayinlagan. Ularga ikki o‘rtada bo‘ladigan suhbatlarda ham qatnashish huquqi berilgan.

Sohibqironning ulkan saltanatida adolat mezoniga, qonun ustivorligiga qattiq amal qilingan.

Mamlakatda nohaqlik, adolatsizlikka qarshi murosasiz kurash olib borilgan. Nafsi yomon, buzuq, ahloqsiz odamlar mamlakatdan haydab chiqarilgan. Har bir hudud amaldoridan o‘g‘rilik va qaroqchilikka qarshi kurashda shaxsan javobgar ekanligi qoida tariqasida belgilab berilgan. Shu tariqa, saltanatda jinoyatchilikdek illatning ildiz otishga yo‘l qo‘yilmagan.

Sohibqiron saltanatining barcha hududlarida gadolikni yo‘q qilishga muhim e‘tibor berilgan. Bu haqda “Tuzuklar”da “Har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo‘l bilan gadolik rasmi yo‘qolsin...Har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to‘plab kundalik yemish-ichmishlarini berib, ularga biron vazifa belgilasinlar. Hamda barchani tang‘alasinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar tang‘adan keyin gadolik qilgudek bo‘lsalar, ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar yoki xaydasinlar. Shundagina gado zoti mamlakatdan yo‘qoladi”-deb yozadi[8].

Muqaddas islom dini Amir Temur davlatining tayanchi edi. U islom dinini mustahkamlash bilan birga unga rivoj berdi.

Islom dinini targ‘ib qilishda va himoya qilishda Sohobqironga teng keladigan tarixiy shaxs kam. Bu haqda Amir Temur shunday yozadi: “Jahonning turli mamlakatlari, katta va kichik shaharlarida islom dinini va odamlarning xayrlisi-Hazrati Muhammadning to‘g‘ri yo‘llarini targ‘ib etdim. O‘z saltanatimni shariat bilan bezadim”[7].

Amir Temur buyuk davlat arbobi bo‘lish bilan birga, o‘z davrining dunyo tan olgan mashhur harbiy sarkardasi ham edi. Uning harbiy siyosati, sarkardalik talanti, avvalo, davlatning siyosiy-harbiy mustaqilligini harbiy tashqi xavflardan saqlashga qaratilgan edi.

Ayniqsa, Sohobqiron o‘zining To‘xtamishxon va turk sultoni Boyazid ustidan qozongan g‘alabasi bilan o‘zining daho qo‘mondon, dono strateg ekanligini namoyish qildi. Bu g‘alabalar jahon mamlakatlari tomonidan Amir Temurga shuhrat keltirdi. O‘sha paytda butun Yevropa Amir Temurga “Evropa xaloskori” deb minnatdorchilik bildirdi.

Amir Temur davlati bilan Ispaniya, Italiya, Angliya, Fransiya kabi davlatlar o‘rtasida savdo va diplomatik aloqalar rivojlandi.

Sohobqiron o‘z davridayoq, har bir davlatning davlatlararo hamkorliksiz istiqboli bo‘lmashligini teran his etdi. Shu sababli u Yevropa va Osiyoni bog‘lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Muxtasar qilib aytganimizda, Sohobqiron Amir Temur o‘z davrining buyuk davlat arbobi, markazlashgan davlat va buyuk saltanat asoschisi, qonunchilik va adolatga tayangan hukmdor va iste’dodli lashkarboshisi edi. U buyuk davlat arbobi va iste’dodli sarkarda sifatida yetti iqlimga mashhur bo‘ldi.

Sohibqiron davri tarixchisi Ibn Arabshoh yozganidek, Amir Temur o‘z davridayoq: “Etti iqlim Sohibqironi, yeru suvni idora qiladigan (zot), podshohlaru Sultonlar javohiri”-deb tan olingan edi[4].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida aytganlaridek, “O‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda”.

Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorining barpo etilishi – Sohibqiron orzularining ruyobga chiqishidan dalolatdir.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
2. Асқаров А. Ўзбекистон мустақиллиги шароитида тарих фанининг вазифалари. /Ўзбекистонда ижтимоий фанлар/. Т.: 1992 йил №7,8 сонлари.
3. Азимов Э. Амир Темур салтанати. Т.: Ғ.Ғулом нашриёти. 1996.
4. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. II жилд, - Т.: “Меҳнат”, 1991.
5. Н.Шомий. Зафарнома. –Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
6. Ш.А.Яздий. Зафарнома. –Т.: “Камалак”, 1996.
7. Темур тузуклари. –Т.: “Ғ.Ғулом нашриёти”. 1991.
8. Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. –Т.: “Фан”, 1991.
9. Муҳаммаджонов А. А.Темур ва Темурийлар салтанати. – Т.: “Қомуслар” бош таҳририяти, 1991.
10. Носиров У, Нурқулова Р. Амир Темурни англаш – ўзликимизни англашдир. – Т.: “Тафаккур”, 2014.
11. Иброҳимов А. Бизким ўзбеклар. –Т.: “Шарқ”, 1999.
12. Руи Гонзалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. (1403-1406 йиллар). –Т.: “Ўзбекистон”, 2010.
13. Хильда Хукхэм. Властитель семи созвездий. – Т.: Издательство “Адолат”; 1995.